

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2005-yil 10 - 16-oktabr N:41 (66530)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi
Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

NEKSIYA, TIKO, DAMAS - KO'RGANLAR QILAR HAVAS

Andijonim o'zining go'zal tabiati-yu, mehmondo'st xalqi bilan butun dunyoga tanilgan. Ayniqsa, uning boy tarixi xorijlik olimlar e'tiboridan chetda qolmaydi.

Viloyatda faoliyat olib borayotgan bir nechta qo'shma korxonalar yurtim iqtisodini yuksaltirib, nomini xorij davlatlariga ham tanitmoqda. «Neksiya», «Tiko», «Damas», «Lasetti» kabi mashinalarimizning ta'rifi dunyoning chekka-chekka nuqtalarigacha yetib borgan.

Asaka shahri yonidagi Neftchilar shaharchasida joylashgan ikki - rus va o'zbek tilli maktabimiz jamoasi ahil va inoqligi bilan barchaga namuna bo'lyapti. Bizda

yosh o'qituvchilarga katta e'tibor beriladi. Malakali ustozlar o'z tajribalari bilan doimo o'rtoqlashishadi. Bu yil maktabimizda katta o'zgarishlar bo'ldi. Sinfxonalardan tortib maktabning tashqi devorlarigacha yangidan ta'mirlandi. Maktabimiz direktori Musa

aka Yusupov, direktor muovini Abduvohid

Anjanha kalom



aka Aliqulovlar boshchiligidagi zamonaviy tus olgan maktabimiz nafaqat tashqi ko'rinishi bilan, balki intizom va davomat bo'yicha tumanda eng namunali deb tan olindi.

Mohidil Yo'ldosheva, Lena Abdullayeva, Mariya Sayfuddinova, Nazira Abdukarimova, Odina Ababakirova, Hafiza Yusupova, Hilola Davronova kabi malakali ustozlarimiz bilan faxrlanamiz.

Hozirda ana shu ustozlarim safiga qo'shilish maqsadida O'sh shahrida ta'lim o'lyapman. «Tong yulduzi» gazetasining

«Bola va dunyo» rukni ostida berilayotgan xorijlik tengdoshlarimning hayoti meni ham qiziqitirib qo'ydi. O'ylasam, men ham yaqin horijiy davlatda o'qiyapman. Qirg'iz yoshlarining ta'lim-tarbiyasiga oid fikrlarimni jamlab maqola yozish, uni sevimli gazetamga yuborishga ahd qildim. Kelajakda okean orti mamlakatlari oliygohlarida o'qishimni davom ettirish orzusidaman.

Marhabo YUSUPOVA,

Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi 12-o'rta maktabning fizika fani o'qituvchisi yordamchisi. Qirg'iziston Respublikasi O'sh shahridagi universitetning 1-bosqich talabasi.



Hashar

Bobomning aytishlaricha, bu yilgi yoz jaziramasi paxtakorlar uchun qo'l kelganmish. Dalalarda chanoqlarni to'ldirib barqutdek ochilib turgan paxtalar terimchilarni chorlamogda. Xirmon-xirmon oq oltinlar yurtimiz boyligi. Bu yil 6-sinfga ko'chganimiz bois, darsdan so'ng bizlar ham paxta terimiga chiqayapmiz. Mirjalol, Salimjon, Azimjon, Sojida, O'g'iloy kabi sinfdoshlarim bilan kim o'zarga bellashib, kuniga 25-35 kilogrammdan oq oltin



terayapmiz. Olgan pullarimizdan birinchi navbatda sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ga bir yilga obuna bo'ldik. Sinfimizda 28 nafar o'quvchi tahsil olishadi. Bizning bu ishimiz ularga ham ma'qul bo'ldi shekilli, qolgan o'quvchilar ham birin-ketin dalaga chiqishmoqda. Ko'pincha etaklarimizni aka-opalarimiz torozigacha eltib berishadi. Agar har kuni o'rta hisobda 25 kilogrammdan paxta tersam, mavsum davomida 1 tonnadan ziyod paxta terarkanman. Do'stlarim ham, o'zim ham ko'cha-kuyda bekor yurmasdan oilamizga foydamiz tegayotganidan quvonamiz.

Asliddin NURMATOV,

Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 60-maktab o'quvchisi.

RAMAZONCHI BOLALAR

Ramazon aytib kelgan bolajonlar,
Iymoni to'q, nuqsoni yo'q, musulmonlar.
Xush kelibsiz, Ramazonda eshigimga,
Yulduzdayin baxt tilabsiz beshigimga.



Oq tangam bor, zar tangam bor, bari sizga,
Jiringlatib bo'lib beray baringizga.
Popuklarim, holvalarim beray sizga,
Shirin-shakar, baxtu iqbol tilay sizga.

Iftorlarda eshigimni ochib qo'yay,
Mehru ishqim tangalarday sochib qo'yay.
Har kun shunday,
har kun shunday,
Har biringiz bo'lib oyday, bo'lib kunday.

Ramazon aytib keling bolajonlar,
Iymoni to'q, gunohi yo'q musulmonlar.
Aziz ABDURAZZOQ.

Ta'zim

BAXT O'ZI NIMA?

Bilasanmi Maftuna, biz sendek paytimizda maktabda chet tili o'qimas edik. Chunki maktabimizda chet tili o'qituvchisi yo'q edi. O'sha paytlarda chet el kinofilmlarini, ayniqsa, qiziqib tomosha qiladiganim «Uchinchi sayyora» ko'rsatuvini ko'rganimda chet tiliga bo'lgan qiziqishim tobora ortib borardi. Yoshlikdan orzuga erishish uchun astoydil intilsang, albatta yetar ekansan. Qashqadaryo viloyati, tumanidagi Zafar Diyor nomli 17-o'rta maktabda aynan men orziqib kutgan chet tili o'qituvchisi nihoyat 11-sinfni bitirar chog'imizda keldi (2000-yil, yanvar oyida).


Fransuz tilini o'rganaman! Fransiyaga boraman! Orzuim amalga oshdi, deb xursand bo'lganman. Fransuz tili darsimiz boshlandi. O'qituvchimiz Feruza opa shiddat bilan darsni boshladilar. Sanoq sonlarni o'rgatmoqchi bo'lib, doskaga yozdilar va 1 raqamini o'qigan edilar, quloqqa g'alati eshitilib, hammamiz kulib yubordik. Shunda ustozimiz menga yomon qarab:

-Kulasizda-a!-deb xafa bo'ldilar.

Ustozning bu qarashi menga qattiq zarba bo'ldi. Va shu kundan boshlab farang tilini o'rgana boshladim. Kunlar o'tib, ustozimdan qo'shimcha dars ham ola boshladim. Maktabni bitirar chog'imizda ustozim: «Sen O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universitetiga hujjat topshir, albatta kirasan», dedilar. Aytganlarini qildim va ustoz ishonchini oqladim. Ammo o'qishga kirgan yilim ustozim bizning qishloqdan ko'chib ketgan edilar. Ularning qayerda ekanliklarini bilmasdim. Bir kuni dekanatdan chiqsam, Feruza opam ro'paramdan yurib kelayaptilar. Biz bir-birimizga qarab biroz turib qoldik.

Ustozim meni ko'rib, biram xursand bo'lib ketdilar, hayajonlari yuz-ko'zlarida mavj urib turardi. Men ham juda baxtli edim!!!

Oybek BUTUNOV,
O'zDJTU fransuz filologiyasi fakulteti
IV-bosqich, 405-guruh talabasi.



Himmat

Kuni kecha Mirzo Ulug'bek nomli madaniyat va istirohat bog'ida bo'lib o'tgan III-Yoshlar festivali shunday nomlandi. «Tong yulduzi» gazetasida amliyot o'tayotgandim. Bosh muharririmiz ushbu tadbirni yoritish uchun meni yubordilar. Birinchi bor bunday topshiriq olganimdanmi, juda hayajonlandim. To'g'ri, avvallari ham bunday tadbir va kechalarda bir necha bor ishtirok etgandim. Lekin unda

talabalar ishtirok etgan insholar tanlovi bo'yicha I - o'rin Andijon viloyati TMI qoshidagi litseyning II-bosqich talabasi Dilmurod Mamajonovga nasib etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus Davlat pedagogika institutining akademik litseyi II-bosqich talabasi Gulnora Reyimovaning yozgan ishnosi II-o'ringa, Navoiy viloyati Davlat akademik litseyi o'quvchisi Xurshida

"GIYOHVANDLIKKA QARSHI EKSTRIM"

shunchaki tomoshabin yoki ishtirokchi bo'lganim uchunmi, bunchalik hayajonlanmagandim...

Tadbirning «Sihat-salomatlik yili» munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Markazi, «Kamolot» YOIH, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi, Toshkent shahar hokimligi, «Edelveys» yoshlar skaut klublari yordamida o'tkazilayotganini «Sog'lom avlod» jamg'armasining yetakchi mutaxassisi Shoira Odilovadan bilib oldim.

-Mazkur tadbirni o'tkazishdan asosiy maqsadimiz — o'smir yoshlarimizni giyohvandlik, kompyuteromaniya, tamaki chekish kabi illatlardan himoya qilish, tog'chang'isi, skaubord, rolikli konki, skeitbord, tog' velopoygasi, «bayk» suv ustida taxtada uchish kabi ekstrimal sport turlari bilan shug'ullanuvchi 6 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan o'smirlarni bir yerga jamlab, ommaviy shoular, konsertlar, turnirlar o'tkazish yo'li bilan ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdan iboratdir,-dedilar Shoira opa.

Festival doirasida respublika miqyosida kollejlarda «Eng yaxshi insho va plakat» nominatsiyalari bo'yicha «Yoshlar giyohvandlikka qarshi» mavzusida insho va rasmlar ko'rik-tanlovi o'tkazilgan bo'lib, ushbu tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi ham bo'lib o'tdi.

Respublikadan ja'mi 18380 nafar o'quvchi va

Safarovaning inshosi esa III-o'ringa loyiq topildi.

Rasmlar tanlovi bo'yicha g'olib chiqqan ishtirokchilar ham munosib taqdirlandi. Tanlovning yakuniy bosqichida ishtirok etish uchun har bir viloyatdan I nafardan, ja'mi 14 nafar g'oliblar aniqlandi. Yoshlarning musiqiy guruhlari va estradamizning yosh yulduzlari ijrosidagi kuy va qo'shiqlar festivalning yanada qiziqarli va jonli o'tishiga hissa qo'shdi.

Festival juda chiroyli o'tdi-yu, lekin uning davlat tilimizda emas, rus tilida o'tkazilishi dilimizni biroz xira qildi-da. Sababini so'rasak, ishtirokchilarimizning aksariyati rusiyzabon o'g'il-qizlar-da, deyishdi. Bizningcha, shunday bo'lgan taqdirda ham har qanday tadbir va kechalar davlat tilida o'tkazilishi lozim-ku, axir.

**Kamola TOSHPOLATOVA,
O'zDJTU talabasi.**



«2005- yil – Sihat-salomatlik yili»

VITAMINLAR OROLI-GA SAYOHAT

Kecha tahririyatimizga poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi «Diyor» nomli bolalar bog'chasida bo'lib o'tgan «Jajji shifokor» tanlovining bir guruh qatnashchilari bog'cha

Vitamin nima, tez yordam ko'rsatishni ham bilamiz, deyishdi bir-birlariga gap bermay.

-Qani, tinglaylik-chi, «jajji shifokor»lar bizga nimalarni gapirib berisharkin?

-Biz 1 va 2- tayyorlov guruhida tarbiyalanamiz. Bog'chamiz hamma bog'chalardan ham zo'r. Toza, ozoda. Bog'imizda mevalar g'arq pishib yotibdi. Bog'cha opalarimiz bizga juda mehribon. Har kuni qiziqarli o'yinlar o'ynaymiz. Bog'chamizda aslo zerikmaymiz. Hatto o'qish va yozishni ham o'rganib oldik. Shu kuni «jajji shifokor» tanlovimizga o'ta-onalarimiz ham kelishdi.

Tanlovda 8 ta shart bo'yicha bellashdik. Test savollariga xuddi a'lochilardek javob berdik. «Vitaminlar oroli» ga ham bordik. U yerda A, B, S, D, E

vitaminlari bilan do'stlashdik va o'rtoqlarimizga ular haqida she'rlar o'qib berdik. Niyatimiz – barcha mevalarni o'z vaqtida tatib ko'rmoqlik. Tatiganlar bizdek kuchli bo'lsin, demoqlik...

Xurshida BOYMIRZAYEVA yozib oldi.



opalari Farida Ahmedova boshchiligidan kirib keldilar. Bir-biridan shirin, yoqimtoy o'g'il-qizlar ekan.

-Kecha bizning bog'chamizda jajji shifokor tanlovi bo'ldi, – dedi ko'zlari porlab Diyoraxon.

Azimjon, Abdulfayzxon, Zulfiya va Zuhrolar:



205 NAFAAR TO'YBOLALI TO'Y

Sarlavhani o'qib, shunaqa to'y ham bo'larkanmi, deya ajablanayotgandirsiz? Bo'larkan, bo'lganda ham juda ajoyib bo'larkan.

Yaqinda Toshkent shahrining Sirg'ali tumani hokimligi tashabbusi bilan o'tkazilgan bir tantanada qatnashdik. To'yda bir emas, 205 nafar to'ybola bor ekan. Tengdoshlari orasida bashang kiyimi-yu do'ppilari bilan ajralib turgan bu bolajonlar tumandagi 33ta mahallada istiqomat qilayotgan kam ta'minlangan oilalarning jajji o'g'lonlari, shuningdek, 15 nafar nogiron bolakay ekan. Tuman «Mahalla» xayriya jamg'armasi, tuman obodonlashtirish boshqarmasi, tuman xotin-qizlar qo'mitasi, tadbirkorlar va boshqa qator tashkilotlar homiylikida «Guzar - serviz» to'yxonasida yozilgan to'kin dasturxon atrofida to'ybolalarning ota-onalari, qarindoshlari, mahalla oqsoqollari va faollari jamul-jam bo'lishdi. Ular navbatmanavbat so'z olib, farzandlari ko'nglini tog'dek ko'targan himmatli insonlarga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.

Iliq gaplar kuy va qo'shiqqa ulanib ketdi. Bolajonlar miriqib rasqsa tushishdi. Avvaliga biroz yodsirab, tortinib turgan mitti bolajonlarni to'y tugagandan keyin ham davradan chiqarib bo'lmadi...

Siz suratda ko'rib turgan birlari kulib, birlari yig'lab turgan mana bu bolakaylar ana shu to'yning sababchilaridir. Yillar o'tar, ular ham ulg'ayib, voyaga yetishar. Oralaridan olim-u fozillar, ustozu muhandislar yetishib chiqar. Kim bo'lishlaridan qat'iy nazar hayotlaridagi ilk tantanani ajoyib tarzda o'tkazib bergan serhimmat insonlarni unutmasliklariga ishonamiz.

Ko'pchilikning o'z qiziqqan, sevimli mashg'uloti, yani, «xobbi»si bo'ladi. Agar u shu inson kelajagiga salbiy ta'sir qiladigan bo'lsa, bunday «xobbi»dan voz kechgan ma'qul. Asrimizni fan va texnika asri deyishadi.

Ona xavotiri

BUGUNGA QIZIQIB, ERTANI UNUTMANG!

Kompyuter orqali dunyoning u chetidagi odamlar bilan suhbatlashib, do'stlashib olishimiz mumkin.

Ko'pgina bolalar kompyuterlar yordamida hatto dars ham tayyorlayaptilar. Kino, multfilmlar tomosha qilib, qo'shiq tinglayaptilar.

Me'yorini bilishsa yaxshiku-ya, ammo huda-behudalarga uzoq vaqt uning oldida o'tirish, dahshatli o'yinlar o'ynashlariga esa mutlaqo qarshiman. Axir o'zlari ham sezgandir kompyuter oldida ko'p o'tirsalar, boshlari og'rib, qorinlari ochiq qolishini? Kun bo'yi lohas bo'lib yurishlarini aytmaymizmi?

Xorijlik bir bolakay me'yorni buzib, 60 soat bu «sehrli» oyna oldida qolib ketadi. Natijada o'zini yomon his etadi. Kasalxonaga keltirilgan bolakay 2 soat ichida yurak xurujidan vafot etadi. Tajribalar shuni ko'rsatayaptiki, kompyuterga bog'langan bolalarda ruhiy kasallik, qo'rqinch, uyqusizlik va qo'l-oyoqlarning qotib qolish holari aniqlandi. Balki eshitgandirsiz, hozirda Germaniyada, Yaponiyada, Xitoyda keraksiz o'yinlar dasturi kompyuterlardan chiqarilmoqda. Va buning tarafdorlari kundan-kun ko'paymoqda. Xullas, hamma narsada me'yor bo'lgani yaxshi-da.

Ma'mura MADRAHIMOVA.

Do'st bilan obod uying

«Ming bor o'lib, ming bor tirilgan tuyg'u». Men do'stlikka shunday ta'rif bergan bo'lardim. Chunki do'stlikni har kim turlicha qabul qiladi. Kimdir bu sof, samimiy tuyg'uning qadriga yetib, ardoqlaydi. Yana kimlardir uni oyoq osti qiladi, nomiga dog' tushiradi...

Navbatdagi to'garak mashg'ulotimiz mavzusini bejiz do'stlikka bag'ishlamadik. Maqsadimiz - ijodkor tengdoshlaringizning do'stlik haqidagi fikrlarini bilish, mulohazalarini siz bilan o'rtoqlashish edi. O'qib ko'rib, o'z munosabatingizni bildirasiz, degan umiddamiz.

YAYRAXON,

«Yangi avlod» media markazi a'zosi:

GAROVGA TIKILGAN DUGONA

Nargiza mag'rur, hamma bilan ham tez chiqishib ketavermaydigan qiz edi. O'tgan yili u kollej talabasi bo'ldi. O'qishlar ham boshlanib ketdi. Dildora ismli bir qiz Nargiza bilan yaqin dugona bo'lishga harakat qilardi. Shu maqsadda o'qishdan so'ng Nargiza bilan qo'ng'iroqlashib turardi. Nargizaning ham Dildoraga mehri tushdi. Ular bir-birlariga shunchalik o'rganib qolishdiki, o'qishdan so'ng Dildora Nargizani uyigacha kuzatib qo'yadigan odat chiqardi. Ularning do'stligiga hammaning havasi kelardi...

Bir kuni bu do'stlikning siri ochilib qoldi. Nargiza orqavartidan eshitgan gaplarining rost yoki yolg'onligini Dildoraning o'zidan so'radi. U esa yerga qarab bor gapni aytib berdi:

«Sen juda mag'rur qiz eding. Bir kuni dugonalarim bilan o'tirib garovlashib qoldik. Ular menga, bu qiz bilan yaqin do'st bo'la olmaysan, deb qolishdi. Sening ustingda 3000 so'mdan garov o'ynadik. Nargiz, meni kechir. Men senga haqiqatan ham ishonaman va yaxshi ko'raman. Sen bilan yaqinroq tanishganimdan so'ng o'sha pulni berib yuborib, va'damdan voz kechganman. Menga ishon...»

Bu so'zlardan Nargizaning nozik qalbi chil-parchin bo'ldi. Yaqin dugonasidan buni kutmagan edi-da. Unga ishonish yo ishonmaslikni ham bilmay qoldi. Lekin Dildoraning tinimsiz qo'ng'iroqlari, kechirimlari va unga bo'lgan mehri tufayli Nargiza uni kechirdi.

Shodiya ERGASHYEVA,

Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani:

«MEN DO'STLIKKA ISHONMAYMAN»

Bu mening emas, katta opamning fikri. Uning hech ikkilanmay bunday deyishga asosi bor albatta...

Keling, yaxshisi hammasini bir boshdan so'zlab bera qolay:

Opam 10-sinfda o'qib yurgan paytlarida Shuhrat ismli bir sinfdoshlari bilan sevishib qolishgan ekan. Ularning munosabatlari shunchalik sof, beg'ubor ekanki, hatto bir-birlarining ko'zlariga tik boqishga-da iymansharkan.

Opamning Noila ismli eng yaqin sirdosh dugonasi bo'lib, ularning sevgisidan xabardor ekan. U: «Senga juda havasim keladi-da, o'rtoqjon. Shuhratjondek ko'rkam, aqlli,

xushli yigitning muhabbatini qozongansan. Oila a'zolarini aytmaysanmi, tagli-tugli, yaxshi odamlar. Bunday xonadonga kelin bo'lib tushishni kim ham orzulamaydi, deysan?» deyishdan charchamas ekan...

Shuhrat opamni bir necha bor uchrashuvga taklif qilib, xat yozibdi. Opam esa: «Ko'rganlar nima deydi? Falonchi maktab o'quvchisi bo'la turib, yigitlar bilan

gaplashib yuribdi, deyishmaydimi?» deya taklifiga rozi bo'lmas ekanlar. Maktublariga javob yozib, Noiladan berib yuborarkanlar...

Avvallari tez-tez yozilib turadigan ishqiy maktublar soni bora-bora kamaya boribdi. Keyinchalik esa umuman kelmay qo'yibdi. Buning sababi bitiruv oqshomida ma'lum bo'libdi. Bashang kiyingan yigit-qizlar davrasida turgan Shuhrat Noilaning qo'lidan tortib, o'rtaga olib chiqibdi-da, shunday debdi:

-Aziz sinfdoshlarim, men Noilani sevib qoldim. Va buni hech kimdan yashirmoqchi emasman. Avvallari men sevgi deb o'ylagan tuyg'u shunchaki havas ekanligini endi anglab yetdim...

Quvonch va hayajondan yuzlari lov-lov yonib turgan opamning boshidan kimdir muzdek suv quyib yuborgandek bo'libdi.

Shu voqea sabab bo'lib, opam do'stlikka umuman ishonmay qo'ydi. Menga ham, hech kimga, hatto eng yaqin dugonangga ham ishonmagin, deya maslahat beradilar. Mening esa bu borada fikrim bo'lakcha: birgina oqibatsiz dugonani deb DO'STLIKning yuziga qora surtish yaxshi emas. Axir besh barmoq barobar bo'lmaganidek, odamlar ham bir xil emas-ku, siz nima deysiz, aziz tengdoshlarim?

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA,

SHO'IM qoshidagi «Yosh jurnalist» to'garagi a'zosi:

TUHMATGA QOLGAN DO'STLIK

Sevara bilan Doniyor bolalikdan qalin do'st. Bilmaganlar ularni sevishganlar deb ham o'ylashadi. Ammo har birining o'z muhabbati bor. Doniyorning hayotidagi har bir voqea Sevaraga ayon. Sevara esa hatto onasiga ham aytolmagan sirlarini faqat Doniyorga ishonadi...

Har ikkisining ota-onasi ham ular orasidagi samimiy do'stlikni qadrlashardi. Lekin bir kuni Sevaraning otasi onasiga:

- Qizimizning bo'yi cho'zilib qoldi. Qadamini o'ylabroq bossin. Menga ortiqcha gap-so'zning keragi yo'q,-deb qoldi.

Darhaqiqat, Doniyor Sevaralarnikiga juda ko'p keladigan bo'lib qolgandi. Chunki sevgilisi boshqa yigitga turmushga chiqayotgandi. Har kuni kelib Sevaradan yupanch topar, ba'zan hatto biroz ko'z yoshi ham qilib, ko'nglini bo'shatib olardi.

Sevara onasi Doniyorning uyga kirishini ta'qiqlab qo'ygani uchun endi u bilan ko'chada gaplashadigan bo'ldi. Qarabsizki, mahallada gap tarqaldi. Mish-mishlar qizning ota-onasi qulog'iga ham yetib keldi.

- Sevara, mana kap-katta qiz bo'lib qolding, hamma narsani to'g'ri tushunishing kerak,-deya nasihat qildi onasi.- Qo'shnilar orasida «Sevaraning yigiti uyigacha keladi, u ham uyalmasdan ko'chada hirlinglashib turaveradi», degan gap tarqalibdi. Bu qiz bolaning sha'niga yaxshi gapmi? Buni yo

o'zing hal qil, yoki adang hal qiladilar.

-Yo'q, bugun o'zim gaplashaman, adam unga gapirmasinlar...

Shu kuni Sevara ming istihola bilan Doniyorni jerkib berdi. Shunday qilsam, uning mendan ko'ngli qoladi, deb o'ylagandi.

-Sevar, senga nima bo'ldi? Nahotki muammolarim bilan joningga tekkan bo'lsam?-xafa bo'ldi Doniyor.- Mayli, hammasi uchun rahmat. Xayr, - dedi-yu ketdi-qoldi.

Sevaraning bo'g'zida «Doni, meni kechir», degan nido qotib qoldi. U xonasiga kirib ho'ng-ho'ng yig'ladi. Oradan ancha vaqt o'tgan bo'lsa-da, Sevarani mahzunlik tark yetmadi. Unga nimadir, aniqrog'i, tabassum yetishmasdi. Uning tabassumi Doniyor bilan birga ketgandi. Shunday qilib, samimiy do'stlik barbod bo'ldi...

Nima uchun ayrim kattalar yoshlarni tushunishni istashmaydi? O'g'il bola bilan qiz bola o'rtasida muhabbatdan bo'lak rishta bo'lishi mumkin emasmi? Shaxsan men

o'g'il bolalar bilan do'stlashishni ma'qul ko'raman. Chunki ular g'iybatni yomon ko'rishadi, sir saqlashni bilishadi. Mendek bir dardkashga, chin do'stga muhtoj bolalar bilan do'stlashishni istayman. Agar orangizda 16 yoshli qiz bilan chin do'st tutinishga or qilmaydigan bolalar bo'lsa, menga maktub yo'llang.

Mening elektron manzilim: mikishbe_musa@mail.ru



«KATTAKON»NING QIZI

Do'stlik haqida gap ketganda bolalikdagi bir voqea yodimga tushaveradi: dadam huquq targ'ibot xodimi bo'lganlari uchun Toshkent viloyatining turli tumanlarida yashab chiqishimizga to'g'ri kelgandi. 3-sinfda o'qib yurgan kezarimda dadamning ishi yuzasidan boshqa tumanga ko'chib ketdik. Onam qo'limdan yetaklab maktabga olib bordilar. Maktabimiz direktori meni yangi sinfdoshlarim bilan tanishtirib, chiqib ketdi. Shu ondayoq sinfda g'ala-g'ovur boshlandi. Orqamdagi partada o'tiradigan bir qiz yelkamga turtib: «Hoy qiz, dadang qayerda ishlaydilar?» deb so'radi. «Dadam sudya bo'lib ishlaydilar» dedim. «Fu, futbolchilarga sudyalik qilarkan-da», deya labini burishtirdi u...

Men esa hech narsaga tushunolmay garang bo'lib o'tiraverdim.

Ma'lum bo'lishicha, sinfimizda jamoa xo'jaligi raisining qizi ham tahsil olarkan. «Kattakonning qizi» bo'lgani uchun uning aytgani-aytgan, degani-degan bo'larkan. Qizlarning «paxan»i degan nomi ham bor ekan. «Paxan» bilan urishib qolgan qizlarning ahvoliga maymunlar yig'larkan: u bilan hech kim gaplashmay qo'yar, masxaralab, ustidan kulisharkan. Kimda-kim u bilan gaplashsa, o'zi ham uning safiga qo'shilarkan...

Tuzukroq biror sovg'a-salom olib kelsagina «paxan» u bilan yarasharkan.

Dastlab men bilan ham hech kim gaplashmay yurdi. Oradan bir necha kun o'tgach «paxan»ning ham, boshqa qizlarning ham menga nisbatan muomalalari keskin o'zgarib qoldi. Sababini surishtirsam, dadamning futbol sudyasi emas, xalq sudining raisi ekanliklarini bilib qolishibdi.

«U ham «katta»ning qizi ekan. Demak, mening tengim ekan. Shu qiz mening eng yaqin dugonam bo'ladi», deganmish «paxan».

Men esa otamning amali uchun quriladigan do'stlikdan voz kechgandim.

Mahfirat aya UMAROVAning gaplarini FERUZA yozib oldi.



Maktab hayoti

«Maktab-bilim dargohi», deb bejiz aytishmagan. Zamonaviy, keng, yorug' sinflarda bilim olib, hunar o'rganishga nima yetsin? Shahrimizning Yunusobod tumanida joylashgan 143-maktab ham ana shunday orasta, ko'rkam bilim maskanlari sirasiga kiradi. Maktabga kiraverishda darsga oshiqayotgan bir necha qizlarni suhbatga tortdim.

YANGI DIREKTORNING VA'DASI

— Maktabimiz bu yil yana ham chiroyli bo'lib ketdi. Ustozlarimiz biz kelgunga qadar rang-barang gullar ekib qo'yishibdi. Gullarni parvarish qilish endi bizning zimmamizda-da. Yangi direktorimiz maktabimizning tashqi ko'rinishiga alohida e'tibor beradilar.

Men maktab direktori yoniga oshiqdim. Ular darsda bo'lganliklari uchun o'quvchilarning to'garaklarda bajargan ijodiy ishlari bilan tanishib turdim. Nihoyat, ular bilan tanishdim.

— Maktabda ustozlarimga hurmatim

va havas qilganim bois, murabbiylik kasbini tanlaganman, - deydi Gulnora opa Usta-Azizova. — Milliy Universitetni tugatgach, dastlab 51- o'rta maktabga matematika o'qituvchisi bo'lib ishga kirdim. Keyinchalik tumanimizdagi 9-maktabda ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor muovini bo'lib ishladim. O'tgan yilning noyabr oyidan boshlab shu maktabga direktor qilib tayinlandim. Hozirgi kunda maktabda 403 nafar o'quvchi 1 smenada o'qishadi.

- Gulnora opa, maktab 9 yillik ekan. Bu yerni bitirib ketgan 9-sinf

o'quvchilarining keyingi taqdiri nima bo'ladi?

— 9-sinfda o'qiydigan har bir o'quvchi bilan ruhshunos Shoir Karimberdiyeva ish olib boradi. Yil boshidan ularning qiziqishi, intilishlari bilan tanishib, test

ma'lumotnomalar olganmiz. Ba'zi o'quvchilarga o'qishga kirishlariga o'zimiz ham yordam beramiz.

— Agar bolaning fikri ota-onasidan farq qilib qolsa-chi? Masalan, ba'zi ota-onalar bolasining o'zlari istagan soha bo'yicha o'qishlarini istamaydilar...

— Bunday hollar ham uchraydi. Lekin ruhshunosimiz ota-onalar bilan ham ishlab, ularga farzandining qiziqishi haqida ma'lumot beradi.

— O'quvchilar uchun darsdan so'ng mashg'ulotlar tashkil qilinganmi?

— Albatta. Har bir fan o'qituvchisi o'z yo'nalishi bo'yicha to'garak ochgan. Bolalar bo'sh vaqtlarida ana shu to'garaklarga kelib, bilimlarini yanada mustahkamlaydilar. Jumladan, «Mohir qo'llar», sport to'garaklarimiz, «Yosh huquqshunoslar» kabi to'garaklarga qatnashayotgan o'quvchilarimiz o'tgan yili tanlovlarda qatnashib, 1-2-o'rinlari egallashgan.

— Hozir ko'p maktablarda reyting tizimi tashkil etilgan. Siz bunga qanday qaraysiz?

— Reyting tizimi har yili o'zgarib

turadi. O'qituvchi va o'quvchilarga qulaylik yaratish uchun bu yildan o'quvchilarga reyting tizimiga mos kundaliklar tarqatildi. Lekin reyting tizimi o'zgartirilmasa yaxshi bo'lardi. Chunki, bittasiga o'rgangunimizga qadar, yangisi joriy etilayapti. Bu esa o'quvchini, o'qituvchini, hatto ota-onalarni ham chalg'itadi.

— Endi kelgusidagi rejalariniz haqida gapirsangiz?

— Hozircha maktabimizda kam ta'minlangan oilalarning farzandlarini bepul ovqatlanirish uchun ruxsat oldik. Aslida avvallari ham bu narsa yo'lga qo'yilgan edi. Endi 1-oktabrdan boshlab ular maktab oshxonasida bepul ovqatlanadilar.

— Maktabingizda «Tong yulduzi»ni oladigan o'quvchilar bormi?

— Albatta, bu gazetani o'qib o'zimiz ulg'ayganmiz. Nega endi o'quvchilarimiz o'z gazetalarini o'qimasliklari kerak? Maktabimizda besh nafar o'quvchi bir donadan «Tong yulduzi»ga obuna bo'ladi. Buni o'zim nazorat qilaman deb sizga va'da beraman.

Direktorning va'dasini olib, maktabda bilimga chanqoqlik behad ekanligidan quvonib qaytdim.

Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi.



To'ng'ich o'g'li u kun chaqaloq ko'rgan, Nomini Sharlotta qo'yibdi, ajab. (Erkin Vohidov).

Insonni dunyoga kelishi hamisha mo'jiza. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa minglab ismlar orasidan qaysidir sababga ko'ra aynan bir ismning qo'yilishi va u shu ism bilan butun umrini yashab o'tishi yana bir mo'jizadir.

Qadimda ajdodlarimiz chaqaloq tug'ilgan paytni yoki joyni xosiyatli deb bilganlar, go'dakning salomatligiga, tana a'zolaridagi belgilarga ham alohida ahamiyat berganlar. Voqe bo'lgan belgi va hodisalarga chaqaloq ismining qanday bo'lishiga ishora bor, deb o'zlari mansub bo'lgan urug', sulola an'alariga ham amal qilishga harakat qilganlar. Ota-onalarning, bobo va buvilarning orzu-intilishlari, ishonch-e'tiqodlari, yaxshi niyatlari, ixlosmandliklari, turli qiziqishlari ham zurriyodlari ismining qanday bo'lishida ma'lum rol o'ynagan.

Bayramlar, hosiyatli kunlar va muqaddas oylarda tug'ilgan bolalarga: Navro'z, Bayramali, Hayitboy, Arofatxon, Jumaboy, Odina, Rajab, Ramazon kabi ismlar qo'yishgan.

Ajdodlarimiz bola tug'ilgan paytning sharofati bilan farzandlarini bir umr o'z himoyasida saqlashiga ishonganlar. Keyinchalik bu muqaddas udumga aylanib, xalqimizning dunyoqarashiga singgan.

Oy kuni yaqinlashgan ayol, odatda o'z uyidag'amxo'r va mehribon kishilari qurshovida bo'ladi. Undan doimo xabardor bo'lib turadilar. Biroq, chaqaloq kutilmaganda yoki muddatidan ilgariroq, odatdan tashqari joyda tug'ilib qolsa, o'sha joyda tug'ilish taqdiriga bitilgan inson sifatida uni Yo'lbichiboy, Mehmonali, Bozorboy, Toshkentboy deb atashni ma'qul ko'rganlar.

Tana a'zolaridagi yetishmovchiliklar, xol, ortiq kabi turli o'smalar, tug'ma dog'lar, tishlarning erta rivojlangani chaqaloqqa Nishonboy, Xoldor, Ortiqboy,

ISMINGIZ NEGA SHUNDAY?

Tojixon, Bo'riboy deb nom berishga sabab Udumga ko'ra egizaklarga Fotima va Zuhra, Hasan va Husan ismlariga ravo hisoblangan. Bolalari turmaganlar Tursunboy, Turg'unboy, Ergashxon deb ot qo'yishsa, uzoq orziqib kutilgan zurriyodning ismi Orzixon, Umidjon bo'lgan.

Diniy yoki g'oyaviy e'tiqodga ko'ra Abdurahmon, Habibullo, Sayfuddin, Inqilob, Melis, Oktyabr kabi ismlar tanlangan. Yaxshi niyat ismlari esa - Baxtiyor, Dilkash, Ravshan, Erkin, Sardor.

Ota-onalarning shaxsiy muxlisligiga ko'ra ular ixlos qo'ygan tarixiy shaxslar yoki zamondoshlar ismini qo'yish hollari ham ko'p uchraydi: Alisher, Temur, Ulug'bek, Bobur, Bedil, Nodira, Nozima, Oybek, Zulfiya.

O'zbeklarda farzandlarining suyumli, ardoqli, qadrli bo'lishlari uchun osmon yoritkichlari, gullar, qimmatbaho metallar va toshlar nomidan foydalanilganiga Quyoshxon, Shamsiqamar, Yulduz, Cho'lpon, Oyxon, Nargiz, Nilufar, Rayhona, Yoqut, Gavhar, Zabarjad ismlari misol bo'la oladi.

Deyl Kornegi ismini aytib chaqirish insonlarga juda xush yoqishini e'tirof etadi. Ruhshunoslar esa, ismining qanday bo'lishi kishining fe'l-atvoriga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlamodalar. Olimlarning fikricha, ismidagi tovushlar birikmasi, ularning qanday jaranglashi har bir shaxsda o'ziga xos aks ta'sir uyg'otar ekan.

Ajdodlarimiz bu hikmatlarni ichki bir tuyg'u bilan anglab yetgan bo'lsalar kerak. Ular ayni shuning uchun



ham inson ismini e'zozlab «ismi sharif» deya ta'riflagan bo'lsalar ajab emas. Bolaning fe'li qattiq aynisa, sog'lig'i yomonlasha borsa, irim qilib, boshqa ism qo'yishlarining boisi ham shundadir. Ismning yanada chiroyliroq, tovushlar qorishmasining yanada jarangliroq bo'lishi uchun ismlarga hurmatlovchi, erkalovchi -oy, -jon, -bek, -xon kabi qo'shimchalarni qo'shib chaqirganlari ham bejiz emasga o'xshaydi.

Aziz bolajon! Do'stlaringizga, yaqin kishilaringizga ismini aytib murojaat qilganda ismlarini toq ayt mang! Otlariga -oy, -bek, -jon, -xon va hokazo qo'shimchalardan mosini qo'shib, chiroyli qilib chaqiring. O'z ismingizga keladigan bo'lsak, ismi-sharifingiz qanday, ismingizning ma'nosi nima? Sizga nima sababdan shunday ism qo'yishgan? Bularni ota-onangizdan, bobo va buvilaringizdan so'rab bilib oling. Axir bir umrlik suyumli hamrohingiz haqida hamma narsani bilishingiz kerak-ku!

Munavvara YOQUBBEKOVA.

Muharrama PIRMATOVA.

Ustozlar yozadilar

MUSICHA

Oyimchaxon musicha,
Do'kon ochdi yo'lakka.
Bitta donni pulladi,
Bo'lib o'n bir bo'lakka.
Don yetmagan qushchalar
Ostonaga tizildi.
Imzo qo'yib birma-bir,
Shikoyat xat yozildi.
Va'da berdi oyimcha:
- Hammangizni qushchalar
Yetkazaman tilakka,
Bundan keyin sotaman,
Bo'lib o'ttiz bo'lakka.

CHITTAK

Bog'dan boqqa uchib sen,
In tanlading bahor, yoz.
Loyihalar yoqmadi,
Uvol bo'ldi ko'p qog'oz.
Kichik inni past deding,
Kattasini xas deding.
Iliq kunda ter to'kib,
Biror yopiq qurmading.
Valdirading, so'z berding,
O'z ahdingda turmading.
Ey, dangasa, hoy, chittak,
Burdning bormi hech qittak!



CHIGIRTKA

Tungi posbon bo'ldim deb,
Chalib-chalib hushtaging,
O'z ko'nglingni xushlading,
Pisib olib iningga
Na o'g'rini ushlading.
Tulki bo'g'di tovuqni,
Jayra yordi qovunni.
Uxlab qolding tong chog'i,
Hakka tortdi sovunni.
Hoy chigirtka, chigirtka,
O'z postini tashlamoq,
Uyatmasmi yigitcha.

BULBUL

Jonga tegdi mashhurlik,
Uchrashuvlar, ziyofat.
Ijodga hech vaqtim yo'q
Uyqum bilmas halovat.
Shuning uchun kun bo'yi
Kuy to'qiyman xilvatda,
Dastxatim kerak bo'lsa,
Tongda kuting albatta.

Nasibjon

MAMADALIYEV,

Namangan viloyati,

Uychi tumani, Birlashgan

qishlog'i, 7-o'rta maktab

o'qituvchisi.

SEVARA RAQSGA TUSHGANDA

nafaqat jajji qizaloqlar, hatto katta yoshlilar ham zavqu-shavq bilan tomosha qilishardi. Bu hol qizchani onasini befarq qoldirmadi. Odatda ko'pchilik o'zbek ayollari qizlarining san'atkor bo'lishini xohlashmaydi. «San'atkor bo'lmaysan, vassalom!» deya qizidagi bor qobiliyat va ishtiyoqni so'ndirib qo'ygan onalarni ham bilamiz. Orzigul opa esa aksincha, qizidagi qobiliyatni yanada rivojlantirishga, iqtidoriga qarab to'g'ri yo'naltirishga harakat qilardi. Qo'shiqlarini tinglab, o'zimning san'atkor qizimdan o'rgilay, deya bag'riga bosardi. Shu tariqa qizini ruhlantirib, unda o'ziga nisbatan ishonchni shakllantirib borardi...

Sevara olti yoshga to'lganida onasi jajji qo'lchalaridan yetaklab raqs to'garagiga olib bordi. To'garakda nafaqat raqs tushishni, qo'shiq aytib, sahnada rollar ijro etishni ham o'rganib olgani 21-sonli musiqa maktabining dutor sozandaligi bo'limiga kirish imtihonlarini topshirishida Sevaraga juda qo'l keldi. Puxta bilim olib, o'zbek milliy kuy va qo'shiqlarini o'rgana bordi. Tinib-tinchimas qizaloq maktab qoshida ochilgan milliy yo'nalishdagi maqom va folklor to'garagiga ham qatnay boshladi. Maqom uslubida qo'shiq kuylash har kimning ham qo'lidan kelavermasligini yaxshi bilgan Orzigul opa avvaliga, Sevara eplay olarmikin, deya biroz xavotirlangandi. Qizi maqom qo'shiqchiligi bo'yicha bo'lib o'tgan tanlovning shahar bosqichida ishtirok etib, oliy o'rin sohibi bo'lgandan keyingina ko'nglini xijil qilib turgan xavotir tumandek tarqab ketdi.

Maktabni muvaffaqiyatli tamomlagan Sevara hujjatlarini Toshkent shahar estrada sirk kollejiga topshirdi. Suxandon va aktyorlik bo'limida tahsil olib, talaygina spektakllar va sahna ko'rinishlarida rang-barang rollar ijro etdi. Bir paytlar ustozlari ko'zlariga boqib, o'gitlariga astoydil quloq tutib, ulardan san'at sirlarini o'rganishga intilgan qizaloqning o'zi ham bugun ustoz bo'lib qolgan. Bilganlarini, ayniqsa, sevib ijro etadigan «Dilxiroj», «Zang», «Doira raqsi» hamda turli millat xalqlarining raqslarini o'zi rahbarlik qilayotgan raqs to'garagining jajji raqqosalariga mehr bilan o'rgatib kelyapti.

Kelgusida ajoyib san'atkor bo'lish ishtiyoqi bilan yonayotgan Sevaraning kelajagidan onasining ko'ngli tinch: Demak, qizini to'g'ri yo'lga boshlabdi.

Nasiba TURDIQULOVA,

Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi 322 - maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.



Fikr qil

KIM BILAN SALOMLASHAY?



Kundalik hayotimizda eng ko'p ishlatiladigan jumlamiz bu — «Assalomu alaykum», bo'lishi kerak. Uning ma'nosi «Sizga tinchlik va omonlik tilayman» deganidir.

Hozirgi kunda ko'pgina yoshlarimiz o'zlari tushunmagan holda yahudiylarning salomini berishadi. Masalan, qisqa qilib «Solekum» yoki bo'lmasa

«Assam alaykum» deb salom berishadi. «Assam alaykum» sizga o'lim tilayman degan ma'noni anglatadi. Yana kimlardir «Assalom» deb qo'ya qolishadi. Bu ham noto'g'ri, chunki «Assalom» tinchlik - omonlik degani, alaykum bilan birga qo'shib aytilmasa kimga qarata tinchlik, omonlik tilayotganligi mavhum bo'lib qoladi. Assalomu alaykum deb salom berishimiz ham farz, ham qarz.

Salomlashish odobi bo'yicha yuqoridagi kishi pastdagi kishiga, ulov mingan kishi piyodaga, piyoda kishi o'tirgan kishiga, ozchilik ko'pchilikka, kichiklarga kattalarga salom berishi kerak. Kichik yoshdagilar bilan uchrashganda avval katta salom bersa ham bo'laveradi. Axir Payg'ambarimiz ham yosh bolalar bilan uchrashganda birinchi bo'lib o'zlari salom berardilar.

Bir kuni o'qishga ketayotib yoshi ulug' bir onaxonga salom berdim, shunda ular: «Ha qizim, meni birorta tanishingga o'xshatib yubordingmi?» dedilar. Izza bo'lib qolmaslik uchun, ha, deb qo'ya qoldim. So'ngra o'ylab qoldim, odamlar faqat tanish-bilishlari bilangina salom - alik qiladimi?.. Shundan buyon ko'cha-kuyda begona odamlarga salom bermay qo'ydim. Notanish odamlarni bir-biri bilan salom-alik qilmayotganliklariga mana shunga o'xshash voqealar sabab bo'lmayaptimikin?

Gulasal USMONOVA,

O'zMU qoshidagi Sobir Rahimov akademik litseyining

III- bosqich talabasi.

O'zimiz ertak yozamiz

GUL SEHRI

Qadim-qadim zamonda, uzoq o'rmon tomonda, kichik kulbada Shohsanam ismli bir qiz yashar ekan. U har kuni saharlab qo'shiq aytib, butun o'rmon ahlini uyg'otar, uning shirali ovozigacha dov-daraxtlar-u, o't-o'lanlar, barcha jonzorlar mahliyo bo'lishar, uni juda yaxshi ko'rishar ekan. Oradan kunlar o'tibdi. Yil fasllari birin-ketin almashib, qish fasli ham yetib kelibdi. Bir kuni ertalab Shohsanam qo'shiq aytibdi. Hayvonlar bu holdan hayratga tushib, qiz yashayotgan kulbaga borishibdi. Qiz bir o'zi kulbasida kasal bo'lib yotgan ekan. Hayvonlar uni davolashga qanchalik harakat qilishmasin, qizga yordam bera olmay qayg'uiga botibdilar. O'rmondagi qari ukki qizni ko'rib, unga atirgul g'unchasi kerakligini aytibdi. Ko'cha sovuq, izg'irin. Shu oppoq qorda qizil atirgulni qayerdan topish mumkin?.. Ukkining aytishicha, bu atirgul to'rt tomoni tog'lar bilan o'ralgan «Qalqon dala»da o'sarkan. Shunday qilib, o'rmonning eng dovyurak hayvonlari va qushlari qizil atirgulni izlab ketishibdi. Ammo gulni topish oson kechmabdi. Uni endi



topdik deganlarida, ularga bahaybat tog' ajdarlari hujum qilishibdi. Shiddatli olishuvda ko'plab hayvonlar nobud bo'lishsa-da raqiblarni yengishibdi. Nihoyat, Shohsanamning vafodor do'stlari «Qalqon dala»ga yetib kelishibdi. Qorli-qirovli kunlarning birorta ham belgisi bu yerda sezilmas, chor-atrof qiyg'os gulga burkangan bo'lib, ularning o'rtasida bo'y cho'zgan qip-qizil atirgul cho'g' misol yashnab turardi. Hayvonlar va qushlar Shohsanam yotgan xonaga gulni olib kirishlari bilan xona nurga to'lib ketibdi. U asta-sekin sog'aya boshlabdi. Oradan bir necha kun o'tgach, ufq qizarib, quyosh bo'y cho'zar paytida chor-atrofdan Shohsanamning avvalgidan ham shiraliroq ovozi yangrab, butun borliqni uyqudan uyg'otibdi.

O'rmon ahli qizil atirgulning sehriga lol qolishibdi.

Ozoda

ABDURASHIDOVA,

S.Rahimov tumanidagi So'fizoda nomli

165-maktabning 7-«G» sinf o'quvchisi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

- O'h-ho'o'o', - dedi Karim aka qovunning cho'g'ini ko'rib, - bugun ov rosa baroridan keldi-ku. Yasha, azamat, bittayam qoldirmay

hammasini topding-a, - deya Ko'ktoyni erkalab qo'ydi. Keyin qovunlardan bitta kattasini oldi-da, chetroqqa qo'yib Ko'ktoyni chaqirdi:

- Ol jonivor, haloling bo'lsin, yevol... Ko'ktoy bunday siylovni kutib turgan ekanmi, jon deb o'zini qovunga urdi.

- Qovunlarni tepaga olishvorasizlar endi, bo'lmasa hid olib hali zamon hammayoqni jayra bosadi. «Ov»dan ajrab qolamiz.

Karim aka haq edilar. Palaklar ichiga jayra kirib qolsa uni haydab chiqarib bo'lmasdi. Yaqinlashding deguncha nayza otadi. Nayzasi zaharli bo'ladi. Bundan chiqdi jayra, chiyabo'ri, tulki, itlar qovunlar qachon yorilishini bilib yarim kechada «ov»ga chiqisharkan-da. «Qovunning shirinini it yeydi», deganlari shu ekan!

Qovunlarni tepaga chiqargach, Karim aka bittasini so'yib bizni mehmon qildi. Biz qovun emas, xuddi novvot chaynayotgandek bo'lardik. Bir tilimdan ortiq eya olmadik. Karim aka bilan xayrlashib, uy-uyimizga tarqaganda xo'rozlar qichqira boshlagan edi...

YONG'OQ TAGIDAGI JIN

Boymurod akaning yong'oq tagiga makon qurib olgan jinlar haqidagi hikoyasi Ko'ktoy bilan bog'liq yana bir voqeani yodimga solib qo'ydi.

Biz qishloq bolalari doimo bir xil tashvish bilan yashardik.

Hayotimiz ko'proq Bo'zsuv bo'ylarida kechardi. Sigirning qornini to'ydirishdan tashqari, uyga bir ovqat pisharlikmi, choy qaynarlikmi ishqlib o'tin ham topib kelishimiz kerak edi. Pishirgulik topsa kuydirgulik, kuydirgulik topsa pishirgulik topilmaydigan zamonlar edi. Biz uchun qurigan ajriqning ildizi ham, mol yemaydigan hashak-xushak ham o'tin edi. Bir kuni sigirning qornini bir amallab qappaytirdimu bir tutamam o'tin topolmadim. Kuz boshlangan, dala-yu dasht bo'shab qolgan. G'o'zapoyaga ruxsat yo'q, paxta terimi davom etardi. Ammamlar urishmadilaru yig'lavorgudek bo'lib dedilar:

- Kechqurunga-ku amalladim, ertalabki choyga nima qilaman endi, otam?

Ammamlar juda xursand bo'lganlarida yoki xafa bo'lganlarida «otam» so'zini qo'shib qo'yardilar. Agarda xursand bo'lib aytsalar «otam» deyishlari yog'dek yoqardi. Birdaniga katta odam bo'p qolgandek shishinib ketardim. Ammo hozirgidek paytlarda musht yegan odamdek a'zoyi badanim zirqirab ketar, o'zimni qo'yishga joy topolmay qolardim. Rost-da, uyimizda erkak kishi men bo'lsam, jiyanlarim yosh, o'tinni men topmay kim topishi kerak?!

- Hozir topib kelaman, - dedim-da, chilvirni qo'ynimga solib, ko'chaga otlandim. Ammamlar:

- Kech bo'ldi, qattanam toparding, qo'yaqol, - deganlaricha qoldilar.

Uyimizdan sal naridagi tepalikda

kolxozning o'tinxonasi bor edi. Lekin o'tinxonaga yaqinlashishning o'zi bo'lmasdi. Bir yoqda kolxoz idorasi, undan keyin magazin, temirchi Mihtiyning ustaxonasi, omborxona, otxona, ana undan keyin o'tinxona edi. Men uchun bitta

yo'l bor. Ana shu bir-biriga tutash qurilgan binolarning orqa tarafi. U tarafda derazalar yo'q. Faqat temirchi Mihtiyning kul tashlaydigan tuynugi bor, xolos. Tepalikning pasti qator yong'oqzor. Narigi yog'i paxtazor. O'tinni bir amallab o'g'iraydigan bo'lsam, albatta yong'oqzordan o'tishim kerak. Shunday qilsam meni hech kim ko'rmaydi. Yong'oqlarning barglari to'kilib, ustida yakkam-dukkam qolgani meni botirlantirdi. Yoz paytlari barglari shunaqangi quyuq bo'lardiki, odam kunduzi yurgani qo'rqadi. Shunday bo'lsa ham yolg'izoyoq so'qmoq tushgan, undan raisnimi, partkomnimi ko'ziga tashlanishni xohlamaganlar yurardilar. So'qmoq yong'oqzor yoqalab Bo'zsuv bo'yiga olib tushadigan ko'chaga tutashib ketardi.

O'txona darvozasi ro'parasiga yetguncha men bilan birovning ishi bo'lmadi. Ko'cha otxona darvozasiga borgach, chapga burilardi-da, otxona yoqalab pastga tushib ketardi.

Nima bo'ldi-yu, otxona darvozasiga yetganimda otboqar Karimboy cholga duch kelib qoldim. U meni ko'rdi-yu, «Ha» degandek tikilib qoldi. Jin ursin. Qo'rqib ketdim. Sir boy bermay darrov salom berdim:

- Assalomalaykum, Karimboy tog'a.

- Ja, - dedi Karimboy chol, - eri nomoshshomda haydavorgan xotindek nima qilib ivirsib yuribsan?

Bunaqa paytda kallayam darrov ishlab ketadi:

- Sigirimmi temir qozig'i tushib qopti...

Biz podamizni Bo'zsuv bo'yiga shu yo'ldan olib tushib, shu yo'ldan haydab chiqar edik - yolg'onimga Karimboy chol ishonmadi.

- He, sigiring o'lib sigirsiz qol, bedaga aylanishsang, kallangni olaman.

Birdan xo'rligim tutib, ko'zlarimga yosh quyilib keldi. Alamim keldi:

- Bedayz boshshiyzdan qosin, sigirimni qarg'amang. Pochcham o'lib, ukalarim yetim qoldi, endi sigirimizam o'lsinmi? Ochimizdan bizam o'laylikmi? - dedim hiqqillab.


Karimboy chol birdan yumshadi:

- Bo'pti, bor, bor, toshingni ter, - dedi-yu otxonaga kirib ketdi.

Yo'qolmagan temirqoziqni qidirgan bo'lib otxonaning orqa tarafiga o'tdim-da, jahl bilan shartta devordan oshib, kolxozning o'tinxonasiga tushdim. Hech zog' yo'q. Kimam bo'lardi nomoshshomda. Oftob botib ketgan, shafaq ham o'chib bo'lgan. Karimboy

OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)



chol xo'jayinligini g'aramdagi bedalarga qilsin! O'tin bilan uning nima ishi bor?! O'tinxonada to'nkalar, shox-shabbalar ayqash-uyqash bo'lib yotardi. Qo'ynimdagi chilvirga

bir ko'tarim tut shoxini bog'ladim-da, yong'oqzor tarafdagi

devordan oshirib otdim. Orqasidan o'zimam oshib o'tdim. Xayolimda kimgadir jahl qilardimu, aslida qo'rquvni yengaman deb o'zim bilan o'zim olishardim. Bu taraf ko'zimga zim-ziyo qorong'i ko'rindi. O'tinni yelkamga oldimu so'qmoqdan keta boshladim. Ko'zim oyog'im tagida, u yoq-bu yoqqa qarash yo'q. Biron narsaga qoqilib-ketishdan qo'rqaman. So'qmoqni ko'zdan qochirmasam bo'ldi, u uyimizga olib boradigan ko'chaga olib chiqadi. U yog'i bir qadam. Aksiga olib so'qmoqni yong'oq xazonlari bosgan, shitirlab vahima solardi. Nimadir yon-verimdan xazonlarni bosib, kelayotgandek bo'lardi.

Shu payt orqalab olgan o'tinimga yong'oq shoxidan bir nima sakrab tushdi. O'tinning butog'i kuragimga qattiq botdi. Chilvirning bir uchi bilagimga o'ralgan. Bo'shata olmayman. Odatda bunaqa joylardan kunduzi o'tgan odam yo hushtak chalib yo biron bir qo'shiqni varanglatib o'tadi. Shu bilan o'ziga-o'zi dalda bergan bo'ladi. Hozirgi ahvolimda na hushtak

Erkin MALIKOV

chala olardim, na... O'tin ustidagi mahluq yelkamdan oshib peshonamni silay boshladi. Nafasim bo'g'izimga tiqilib dod devorishimga oz qoldi. Jon holatda boshimni chayqab yubordim. Qurg'ur yong'oqni bargi ekan. Shu payt otxonada ot kishnadi. Buyam ancha dalda. Bildimki, o'tinxona ancha orqada qopti, otxonaning ro'parasiga kelib qolibman. Otxonadan keyin omborxona, temirchi Mihtiyning ustaxonasi, maktab, Isog'jon tog'aning hovlisi...

Shu payt ko'z oldim yorishib ketdi. E, olov!.. Ha, ha, olov chor atrofni yoritib, gurillab yonardi. Xayolimda kimdir uni yoqqan-u, o'zi ko'rinmasdi. E, deyman o'zimga-o'zim, bu temirchi Mihtiyning ishi-ku. Otlarni taqalab bo'lgandan keyin, tirnoqlarni shu yoqqa obchiqib kuydiradi. Ustaxonada kuydirsa, hammayoqni qo'lansa hid tutib ketadi. Olovni yoqib o'zi uyiga ketgan shekilli.

Men yorug'lik — qo'rqmaslik, qorong'ulik — qo'rqoqlik ekanini o'shanda birinchi marta his qildim. Olovni ko'rish bilan qo'rquvni unutib, ichim yorishib ketgandi. Hatto yelkamni bosib turgan anovi alvasti ham olovdan qo'rqib, yong'oq shoxiga chiqib ketdiyov. Men o'tinni yerga qo'yib, yelkamga botayotgan joyni almashtirib olmoqchi ham bo'ldim. Shu payt mo'jiza yuz berdi. Olovga jon bitib, pildirab, yarim doira yasadi-da, yo'limni to'sib chiqdi...

«Ajina» degan o'y miyamga urildi-yu, nimagadir Ko'ktoyni chaqira boshladim: — Ko'k-toy! Ko'k-toy!

Osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi bilmayman. Ro'paramda, harsillaganicha Ko'ktoy turardi. U bir o'ynoqladi-da, meni aylanib o'tib oldimga tushib yura boshladi. Ko'zimni chirt yumib, tusmol bilan Ko'ktoygga ergashdim. Uyga qandoq yetib kelganimni bilmayman. Hartugul o'tinni olib kelibman.

O'zimni yerga tashlab, yerparchin bo'lib yotaveribman, yotaveribman.

Ammam suv sepib o'zimga keltiribdilar. Ertalab tursam og'zim, burnim to'la uchuq. Ammam ikki dona tuxum berib, kinnachi xolaga jo'natdilar. Kinnachi xola kirdan yag'iri chiqqan bir yostiqni boshimga qo'yib, qoq bo'yraga yotqizdi-da, kinna sola boshladi.

Qirq sulton, qirq bir chilton, Kinna-kinna kirmasmu, kirsas aslo chiqmasmu.

Qorni katta boylarga bor, Dumbasi katta qo'ylarga bor, Qon yalagan qassobga bor, Un yalagan allobga bor, Bu yetimchada nima gunoh?!

Ha, chiq-chiq!.. Chiqmaganigga qo'ymayman, badbaxt chiq!..

Kinnachi xola «hov, hov» deb kekirar, ko'zlaridan shashqator yosh oqardi. Xolaning zamzamalari xush yoqib, uxlab qolibman. Shu payt meni kimdir dast ko'tarib, olib ketmoqchi bo'ldi. Men tipirchilab unamadim. U meni ko'targan joyidan bo'yra ustiga tashlab yubordi. Ko'zimni ochsam, bo'yra ustida o'tiribman. Kinnachi xolaning sopol kosadagi kullari sochilgan, o'zi orqaga ketib, oyoqlari laylak bo'lib yotardi.

(Davomi bor).

So'zga usta kishi so'zni uzaytirmaydi. So'zni mumkin qadar qisqa qilish kerak.

O'txona darvozasi ro'parasiga yetguncha men bilan birovning ishi

Hamma mazzalar (shirinliklar)ni totdim, lekin sog'likdan chuchukroq sharbat topmadim. Alisher Navoiy (Aforizmlar)

Gunohsiz kishini til tig'i bilan ranjitish, sog' kishini nishtar urib yaralash bilan tengdir.

Yaqinginda nishonlaganimiz «O'qituvchilar va murabbiylar kuni» munosabati bilan orden va medallar, unvonlar bilan taqdirlangan xalq ta'limi xodimlari orasida sevimli ustozimiz Qumri opa Abdullayevaning ham borligini eshitib, u kishini qutlagani oshiqdik. Qumri opa kattalarning ham ustози ekan-da, deya ajablanayotgandirsiz? Albatta-da, opaning ustozlari H. Ubaydullayev, Oqilxon Sharafuddinovlar

bilan hamkorlikda yozgan «Alifbe» va «O'qish kitobi» darsliklarini o'qib ulg'aygan har bir inson u kishini «ustozim» deya e'zozlaydi. Qumri opaning yozgan kitoblari, o'quv qo'llanmalari bizni bilimlar olami sari yetaklasa, u kishining bosib o'tayotgan hayot yo'li hayot maktabini o'tayapti, g'ayrat va shijoat bilan ishlashni, yashashni o'rgatyapti, desak hech mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Insonlar bor, juda bilimli, ilmi bo'lishadi. Ammo ularda bilganlarini bayon qilish, o'zgalarga ham o'rgatish qobiliyati yetishmaydi. Boshqalar esa so'zamol, yaxshigina notiq bo'lishadi-yu bilimlari sayozlik qiladi. Ayrim toifa kishilar esa qobiliyati bo'lsa-da, g'ayrati va shijoati yo'qligi bois bor imkoniyatlarini to'laligicha namoyon qila olmaydilar. Qumri opada bu

E'zoz

fazilatlarining bari mujassam. Shunday bo'lganida 16 yoshli muallima dunyo xalqlarining mo'tabar farzandlari — Javoharlal Neru, Indira Gandi, Xo Shi Minlar ishtirok etgan Jahon tinchlik tarafdorlari kongressida mashhur yozuvchilar Oybek, Abdulla Qahhor, shoira Zulfiya, san'at ustalari Sora Eshonto'rayeva, Mukarrama

Qirg'iziston, Qozog'iston Xalq ta'limi vazirliklarining «Faxriy yorliq»lari bilan mukofotlandi. Unga «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi»



ALIFBENI O'RGATGAN

Turg'unboyevalar safida ishtirok etarmidi?! Yosh delegat sifatida e'zozlab, anjuman rayosatida o'tirishga taklif qilishganidagi quvonch va hayajon opaning hali-hamon yodida...

Olima opamizni nafaqat siz-u biz, balki hamdo'stlik mamlakatlaridagi barcha o'zbek maktablarining o'quvchilari, o'qituvchilari, ularning ota-onalari, keng jamoatchilik yaxshi taniydi, e'zozlaydi.

50 dan ziyod darslik, metodik qo'llanma, 700 dan ziyod ilmiy maqolalar muallifi bo'lgan Qumri Abdullayevaning yosh avlodni tarbiyalashdagi, ilmiy-pedagogik kadrlar yetishtirishdagi va boshlang'ich maktablarni yangi bosqichga ko'tarishdagi xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. «Shavkatli mehnati uchun» medali, «O'zbekiston Xalq ta'limi a'lochisi» unvoni hamda O'zbekiston, Tojikiston,

degan yuksak unvon ham berildi.

Opaning umr daftariga zarhal harflar bilan yozilgan sanalar qatoridan mazkur yilimizning 1 - oktabri ham munosib o'rin egalladi. «El-yurt hurmati ordeni» bilan taqdirlandilar. Pedagogika fanlari doktori, professor Qumri opa Abdullayeva bu mukofotning zalvorini, mas'uliyatini juda yaxshi his qiladilar.

Ardoqli olim opamizni jamoamiz hamda «Tong yulduzi»ning ko'p ming sonli o'quvchilari nomidan qizg'in muborakbod etamiz. Ularga uzoq umr, sihat-salamatlik tilaymiz. Dunyoda tinchlik barqarorligini ta'minlash uchun bolalarni yoshlikdanoq do'stlik, o'rtoqlik ruhida tarbiyalash g'oyasi singdirilgan yangi-yangi darsliklar, ilmiy maqolalar kutib qolamiz.

Feruza JALILOVA.

RASMLAR KO'RGAZMASI



Elmira OTAMURODOVA.

Bu nom sizga ancha tanish bo'lib qolgan-a, aziz o'quvchilar? Faol va izlanuvchan muallifimizning turli mavzudagi maqola va xabarlarini o'qib borasiz.

Elmira opangiz yaqinda Toshkent tumanidagi 25-maktabda o'qituvchi bo'lib ish boshladi. Quyi sinf o'quvchilariga tasviriy san'atdan to'garak ham olib boryapti. Shu oz fursatda o'quvchilari bilan samimiy do'stlashib ham oldi. Gazetada chop etilsa, bolalarning san'atga bo'lgan ishtiyoqi yanada ortarmidi, degan ezgu niyatda o'quvchilari chizgan rasmlardan tahririyatimizga olib kelibdi. Biz ulardan saralarini tanlab olib, rasmlar ko'rgazmasini tashkil qilishga qaror qildik.

Ochil dasturxon

SAHARLIK UCHUN

Kerakli masalliq: 1 piyola yong'oq, 1 piyola mayiz, 0,5 piyola asal, 50 gr. saryog', 2 osh qoshiq kakao.

Tayyorlanishi: Yong'oq va mayiz go'sht maydalagichdan chiqariladi. Unga asal, saryog', kakao qo'shiladi. Hammasi aralashtirilib, saharlik dasturxoniga tortiladi.



JIGARLI TORT

Kerakli masalliq: 400-500 gr. jigar, 2-3 dona piyoz, 2 dona tuxum, 3 osh qoshiq un, 0,5 choy qoshiqda o'simlik yog'i, 2 ta qizil sabzi, 200-300 gr. mayonez, 1/2 choy qoshiqda iste'mol sodasi, oshko'klar.

Tayyorlanishi: Jigar va piyoz go'sht maydalagichdan chiqarib olinadi.

Unga tuxum, un va soda, yog'ni qo'shib yaxshilab aralash-tirib olinadi.

Qizib turgan tovada quymoq pishirgandek masalliq pishirib olinadi (Cho'michga to'la olib, tovaga quyiladi).



Qizil sabzi qaynatib olinadi va pishgach qirg'ichdan o'tkaziladi (sovgan holda).

Mayonezga sabzi va ko'katlar qo'shiladi.

Quymoqdek pishirib olingan jigar ustma-ust terilib, har bir qavat orasiga mayonezli aralashma surtiladi. Eng ustiga bezash uchun 1 dona tuxum qaynatib, qirg'ichdan chiqariladi va ustidan sepiladi. Quymoqsifat jigar 18-20 ta bo'lgani uchun ulardan 2-3 ta tort chiqarsa bo'ladi. Har bir tort 6-7 qavatli bo'ladi (xuddi asal tortiga o'xshaydi).

Yoqimli ishtaha!

Nargiza ABDULLAYEVA.

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida

022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 13857

Buyurtma N: J 1685

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin
SHAYADGAROV.
Navbatchi:
Muharrama
PIRMATOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10
144-63-08

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45